



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 23-aprel, payshanba,
37 (24.217)-son

O'zbek xalq
maqoli

Arpa-bug‘doy
bir kunningga
yaraydi, sodiq
do‘sting -
o‘lguningcha

SAMARQAND MARKAZIY OSIYONING YANGI MASHINASOZLIK XABI BO‘LADI(mi?)

O‘zbekiston sanoat xaritasida yangi gigant paydo bo‘lmoqda

Prezidentimizning joriy yil 20-apreldagi qarori bilan Kattaqo‘rg‘on tumanida ulkan Mashinasozlik sanoat zonasini tashkil etilmoqda. Bu loyiha nafaqat viloyat iqtisodiyotini, balki yurtimizdagi avtomobilsozlik qiyofasini butunlay o‘zgartirib yuborishi kutilmoqda.

NEGA AYAN SAMARQAND VA MASHINASOZLIK?

So‘nggi yillarda O‘zbekiston iqtisodiyotida xomashyo eksport qilishdan tayyor yuqori texnologik mahsulotlar ishlab chiqarishga o‘tish strategiyasi ustuvor vazifaga aylandi. Viloyatimiz o‘zining geografik joylashuvi, logistika imkoniyatlari va mehnat resurslari bilan bunday yirik klaster uchun eng qulay hudud sifatida tanlandi. Qarorga muvofiq, 2030-yilga borib viloyat sanoatida mashinasozlik tarmog‘ining ulushi 15 foizga, qo‘shilgan qiymat miqdori esa 40 foizga yetishi kerak.

Bu raqamlar shunchaki statistika emas, balki minglab oilalarning daromadi va mamlakatning texnologik mustaqilligi demakdir. Kattaqo‘rg‘onda Yangi sanoat zonasini uchun tumanning «Yangihayot» massividan 100 gektar yer maydoni ajratildi. Ilgari lalmi va yaylov bo‘lgan bu yerlar endilikda zamonaviy zavod, yuqori texnologiyali sex va logistika markazlariga aylanadi.



Sanoat zonasining
o‘ziga xos jihati
shundaki,
u yerda
faqat

ma‘lum toifadagi transport vositalari ishlab chiqariladi: N toifa- yuk tashuvchi avtomobillar; M2 va M3 toifa - avtobus va mikroavtobuslar; L toifa - mototransport vositalari; O toifa - tirkama va yarim tirkamalar.

RAQAMLAR GAPIRGANDA ...

Loyihaning ko‘lami kishini hayratga soladi. Dastlabki bosqichning o‘zidayoq xorijiy hamkorlar bilan birgalikda 116 million AQSh dollari miqdoridagi 5 ta yirik investitsiya loyihasi tasdiqlangan.

Unga ko‘ra, faqat 2028-yilning o‘zida 50 ming dona mototransport va bolalar aravachalari ishlab chiqariladi.

Shuncha miqdordagi osma va tirkama texnikalar tayyorlanadi.

2029-yilda 5 ming dona gidravlika uskunalar, 2029-2031 yillarda 10 ming dona tijorat transport vositalari (yuk avtomobillari, avtobus, mikroavtobus, pikap va maxsus transport vositalari)ni tayyorlash yo‘lga qo‘yiladi.

Mazkur loyihalarni amalga oshirish jarayonida 2 mingdan ortiq yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratiladi. Bu Kattaqo‘rg‘on va atrof tumanlardagi yoshlar uchun o‘z uyida turib, zamonaviy texnologiyalarni boshqarish va yuqori maosh olish imkoniyatidir.

BIZ FAQAT YIG‘MAYMIZ, ISHLAB CHIQA RAMIZI!

Ko‘pchilikni bir savol qiynaydi: "Biz faqat chetdan kelgan qismlarni birlashtiramizmi?". Qarorda bunga aniq javob berilgan.

Jumladan, sanoat kooperatsiyasi asosida mahalliy lashtirish darajasini oshirish orqali yillik «mahalliy kontent» hajmi 100 million dollarga yetkaziladi. Ya‘ni, ehtiyoq qismlar va butlovchi buyumlarning salmoqli qismi aynan shu yerda ishlab chiqariladi.

Darvoqe, mahsulotlar nafaqat ichki bozor, balki Markaziy Osiyo va MDH davlatlari bozorlarini ham egallashi maqsad qilingan. "Made in Uzbekistan" brendi ostidagi og‘ir texnikalar mintaqa yo‘llarida yetakchilik qilishi uchun barcha huquqiy va iqtisodiy asoslar yaratildi. Albatta, bunday katta quv-



vatni ishlatish uchun kuchli energiya, yo‘l va mutaxassis kerak. Qarorda bu masalalar ham tizimli hal etilgan.

Masalan, 2026-2027-yillarda hududga yangi elektr tarmoqlari, gaz, suv va eng muhimi — temir yo‘l tarmoqlari tortiladi.

Ish o‘rinlarining kamida 5 foizi dual ta‘lim (nazariya va amaliyot uyg‘unligi) asosida tashkil etiladi. Yoshlar zavodning o‘zida o‘qib, o‘sha yerda ishlashni boshlaydi. Kamida 3 yillik kadrlar tayyorlash dasturi amalga oshiriladi.

Zamon bilan hamnafas bo‘lish maqsadida ishlab chiqariladigan 10 ming dona texnika ichida elektrda harakatlanuvchi transport vositalariga alohida urg‘u berilgan. Bu Samarqandning ekologik toza hudud bo‘lib qolishiga va jahon trendlaridan ortda qolmasligimizga xizmat qiladi.

XULOSA O‘RNIDA

Mashinasozlik sanoat zonasini shunchaki zavodlar yig‘indisi emas. Bu — O‘zbekistonning sanoat mustaqilligi yo‘lidagi ulkan qadami, yangi texnologiyalar maktabi va minglab yurtdoshlarimiz uchun farovon hayot manbai. 2028-2030-yillar oralig‘ida Kattaqo‘rg‘on dashtlarida qad rostlaydigan bu sanoat giganti Samarqandni nafaqat turizm markazi, balki mintaqaning mashinasozlik yuragiga aylantirishi shubhasiz.

Loyihani amalga oshirish jarayoni qat‘iy nazoratga olingan bo‘lib, har yarim yilda Vazirlar Mahkamasiga hisobot berib boriladi. Bu esa belgilangan maqsadlarga vaqtida va sifatli erishilishining kafolatidir.

Y.MARQAYEV tayyorladi.



E'tirof

TEMIRCHI USTANING “JASORAT”I

Prezidentimiz farmoniga ko‘ra, mahalla tizimi xodimlari kuni arafasida Ishtixon tumanidagi yakka tartibdagi tadbirkor, temirchi usta Sayitnazar Hayitov “Jasorat” medali bilan taqdirlandi.

Ishtixon tumanida texnikasi bor odam borki, barchasi orolotlik usta Sayitnazar akani yaxshi taniydi. Temirni sehvlovchi, qo‘li bilan xamirdek qayirib, istagan holatiga keltiradigan usta deb biladi. U qariyb 30 yildan buyon temirchilik bilan shug‘ullanib, 2 mingdan ziyod ish qurollari, qishloq xo‘jalik yerlariga ishlov beruvchi uskunalar va ularga ehtiyot qismlar yasaydi.

2-guruh nogironi Sayitnazar Hayitov 63 yoshda bo‘lishiga qaramay hozir ham og‘ir va murakkab ish bilan shug‘ullanib keladi. Ikki o‘g‘li yoniga kirib, uning ishini davom ettirmoqda. Hatto turmushga chiqib ketgan qizlari ham texnikalarni sozlashga qiziqadi. Ustaxonaga kirib qolsa bas, qo‘liga bolg‘ani olib nimalarnidir yasashga urinadi.

- Temirchilikka bolaligidan ishqim tushgan, - deydi Sayitnazar Hayitov. - Tog‘alarim texnika mingani tufayli menda ham shu sohaga qiziqish baland edi. Traktor va avtomashinalarning barcha turlarini hayday olaman. Anyiqsa, ularni ta‘mirlash yoki temirdan biror bir ehtiyot qismlar yasashga intildim. O‘ta murakkab bo‘lgan qismlarni

ham temirni qizdirib, bosqonda urib yasashdan zavq olaman.

S.Hayitov Rossiyaning Sibir o‘lkalarida harbiy xizmatni o‘tash davrida oyog‘idan qattiq jarohat olgan. Harbiy gospitalda shifokorlar uning chap oyog‘ini gangrena bo‘lmasin deb kesib tashlashlariga to‘g‘ri kelgan. Operatsiyadan keyin dunyo ko‘ziga qorong‘i bo‘lib ketdi. "Endi bir oyog‘ bilan qanday yashayman, nima ish qilaman? Hatto traktorga ham mina olmayman-ku" deb ezildi. Uyiga yasama oyog‘ — protez bilan kelgach, ota-onasi, aka -ukalari va yaqinlari unga dolda bo‘lishdi. Asta-sekin protezga ham o‘rganib, dalada mehnat qila boshladi. Matonat bilan ishlab, oila tebratdi, ro‘zg‘orga yaqindan yordam berdi.

Keyinchalik Navoiy pedagogika institutini bitirib, qishloq maktabida boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga dars berayotgan Rahima ismli qizga ko‘ngil qo‘ydi. Sovchi yuborib, unga uylandi. Qariyb yarim asrdiki baxtli oila bo‘lib, birgalikda umrguzaronlik qilib kelmokda.

(Davomi 2-sahifada) >>>

Bo‘larkan-ku!

Bir oyda 350 oila yarashtirildi



- Men u bilan yashamayman! - shart kesdi yigit bir guruh faollar orasida (ular orasida viloyat tashkiloti rahbarlari ham bor edi). - Men unga juda ko‘p imkon berdim, lekin u aytganimday bo‘lmadi. Ota-onamning xizmatini qilmagan ayol bilan yashashni istamayman.

Faollar unga barchasini obdon tushuntirishdi, ikki nafar bolasi bor yigit bunday mas‘uliyatsizlik qilishi farzandlar taqdirida albatta aks etishi va bu ta‘sir ijobiy bo‘lmisligi haqida aytishdi.

- Farzandlaringizning ota-ona bilan, chiroyli oila sifatida ulg‘ayishini nahotki istamasangiz... Ularning ko‘z yoshi uvolidan qo‘rqmaysizmi?

Xullas, u deyishsa, bu dedi, bu deyishsa, u dedi. Kelinchak bir og‘iz gap qaytarmadi, tilidan «kechiring» degan so‘z tushmadi. «Kechiring, endi siz istaganday bo‘lishga harakat qilaman», deyaverdi. Yigit «onamga yoqmayapsan» deyishdan nariga o‘tmadi.

Qiziq, mana shu kabi sabablar bilan ajrashib, bolalarni hayotning o‘zaniga tashlab qo‘ymaqchi bo‘lgan otalar qancha? Onalar-chi? Qaynona, qaynotalar-chi?

Bugun ajralishlar soni keskin o‘sib borayotgani sabablari nimada? Oilaga befarq munosabat, «bu bo‘lmasa, boshqasi» degan tushunchani ularning ongiga kim singdirdi?

“JAMOATCHILIK OVOZI” QANDAY SAMARA BERDI?

Mamlakatimiz rahbari tomonidan mart oyida o‘tkazilgan yig‘ilishda aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish bo‘yicha vazifalar belgilab berilgan edi. Xususan, 2025-yilda birgina alimant undirish bilan bog‘liq murojaatlar soni 70 mingni tashkil qilgan va ularning 30 foizi hal etilmasdan qolgan.

Samarqand tajribasi asosida «Jamoatchilik ovozi» guruhi tashkil etilib, uning a‘zolari tomonidan oilaviy nizolar sababini o‘rganish va bartaraf etish yuzasidan ishlar olib borilmoqda.

- 66 nafar faollardan iborat mazkur guruhning joylardagi vakillari, ya‘ni har bir tumanida 49 nafar fidoyi insonlar jam bo‘lib, o‘rganishlar olib bordi, - deydi «Jamoatchilik ovozi» guruhi rahbari, «Nuroni» jamg‘armasi viloyat bo‘limi raisi Shuhrat NEGMATOV. - Mahalla faollarini

ham hisobga oladigan bo‘lsak, viloyat bo‘yicha 25 ming kishi muhtni bir joyga tugib, mahalla, qishloqlarga bordik, oilaviy nizolar sababini o‘rgandik. Turli «dedi-dedi»lar bilan oilaviy hayoti buzilayotganlar bilan dildan suhbatlashildi. Natijada bir oyning ichida 350 dan ziyod oila yarashtirildi. 560 nafar bola o‘z oilasiga qaytarildi.

- Har qanday oilaviy ajrimdan eng avvalo, farzandlar aziyat chekadi, - deydi viloyat «Oqila ayollar» harakati rahbari Jamila SAYFIDDINOVA. - Afsuski, bolajonlarning bunday aziyat chekishi shunchaki qolib ketmaydi, u albatta, qayerdadir o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. «Oqila ayollar» harakati a‘zolari bilan hamkorlikda joylarda targ‘ibot tadbirlarida qatnashar ekanmiz, voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi muammolar aksariyat hollarda to‘liq bo‘lmagan oilada ulg‘aygan farzandlar o‘rtasida sodir bo‘layotganini kuzatamiz. Hech kim farzandi yomon yo‘lga yurishi, turli nojo‘ya ta‘sirlarga berilishini istamaydi. Ammo bolalar yosh paytda bunday muammolar bilinmaydi. Ota-ona esa mas‘uliyatni to‘liq bo‘yniga

olgan holda ish ko‘rish o‘rniga mayda gap-so‘zlar bilan ovora bo‘lib qolmoqda. Joylarda o‘rganishlar davomida shu narsa ayon bo‘lyaptiki, yoshlarning oilaga tayyor emasligi, ko‘p masalalar bo‘yicha uzoqni o‘ylamay ish tutayotgani oila atalmish muqaddir maskanga darz yetkazaypti, qadriyatlarimiz yemirilib boryapti.

BIZ KIMNI ALDAYAPMIZ?

- To‘g‘risini aytсам, Payariq tumanida ro‘y bergan ushbu voqea tafsiloti, aniqrog‘i, qaynonaning yarashmoqchi bo‘lgan kelin-kuyovga bo‘lgan munosabatini eshitgandan buyon yuragimning bir chekkasiga og‘riq kirdi, - deydi «Jamoatchilik ovozi» guruhi a‘zosi Farmon TOSHEV. - Nahotki biz o‘z farzandlari ahdu vafosini chaqaga olmaydigan shunday ayollar borligini bilmaganmiz. Nahotki biz bu toifa qaynonaga ham boshqa xotin-qizlar kabi hurmat ko‘rsatishimiz kerak.

Er-xotin o‘rtada ikki nafar bola bo‘lishiga qaramasdan, arzimagan tortishuv sabab bir-biridan arazlab qoladi. Er na bag‘rikenglik ko‘rsatadi, na boshqa chora

Jarayon

ko‘radi, onasiga arz-dod qiladi. Ona esa ularni kelish-tirib qo‘yish o‘rniga kelinga ortiqcha iddaolar qiladi. To‘g‘ri topdingiz, hammamiz ko‘rib yurgan holat: kelin ikki bolasi bilan otasiniqiga boradi.

Men bir narsaga hayronman. Ikki yil ichida na tuman xotin-qizlari vakili, na mahalla bu janjalga aralashmaydi, qaynonani insofga chaqirmaydi, «men-ga nima» qabilida ish tutadi. Chunki bizda bunday mas‘uliyatsizlik uchun aniq javobgarlik belgilanmagan. Faqat bu holga Toshkent va Samarqanddan tegishli tashkilotlar aralashgandan keyingina tuman-dagilar g‘imirlab qolishdi.

Xullas, jamoatchilik vakillari tushuntirgandan so‘ng kelin-kuyov birga yashashga, yarashishga qaror qilishdi. Ammo qaynona boshqacha fikrda.

- Men bu kelinni hovlida qo‘ymayman. Ana, o‘g‘lim rozi bo‘lsa, boshqa yerga yashab ko‘rsin!

Ana shu so‘z, ana shu nuqtai nazar, tabiiyki, har bir odamning yuragiga muzdek tegadi. Kelin bilan yashamasmish! Kelin unga xizmat qila olmas emish. Qaynona uchun o‘g‘lining, qizining baxti muhimmi yoki butun dunyoni o‘zining fe‘liga bo‘ysundirishimi, fe‘lining qasdimi?!

Tabiiyki, oilaviy masalalarda har bir insonning o‘z nuqtai nazari bo‘lishi va shundan so‘nggina oila qurish, bu mas‘uliyatni zimmasiga olish lozim. Ammo bugun barcha ham shu mas‘ullikni bo‘yniga olib turmush quryaptimi? Bu haqda uzoq yillardan beri aytib kelinmoqda. Unga yechim sifatida FHDY bo‘limlari qoshida «Yosh oila quruvchilar maktabi» tashkil etilib, o‘quv jarayonlari o‘tkazilishi boshlangan bo‘lsa-da bir avjiga chiqib, yana susayib qolgan ushbu maktablar faoliyati ham samara bermayapti. To‘g‘rironi, ularning faoliyati rivojlantirilmadi, ba‘zilari nomigagina tashkil etildi, xolos.

Umid qilamizki, «Jamoatchilik ovozi» faqat bir necha oy emas, doimiy ishlaydigan harakatga va tegishli tashkilotlarni bu borada uyg‘oqlikka chorlab turuvchi kuchga aylanadi.

Gulruh MO‘MINOVA,
“Zarafshon” muxbiri.

► Prezident tashrifidan so‘ng

Samarqand — asrlar davomida shakllangan tarixiy mahobat hamda zamonaviy dunyo qiyofasini o‘zida mujassam etgan maskan. Davlatimiz rahbarining viloyatga navbatdagi tashrifi nafaqat hudud, balki butun mamlakat hayotidagi ulkan yangilanishlar fonida kechmoqda. Ya’ni, yillar davomida emas, bir necha kun orasida Olmaliqdagi 3-mis boyitish fabrikasining ishga tushirilishi, poytaxtdagi Islom sivilizatsiyasi markazining ochilishi kabi tarixiy voqealar zanjiri Samarqandda ham o‘zining mantiqiy davomini topdi.

Milliy yuksalishning yorqin va hayotiy modeli

Tashrif davomida taqdim etilgan barcha loyihalar hududni zamonaviy megapolisga aylantirish, har tomonlama rivojlantirish, aholi, ayniqsa, yoshlar kelajagiga daxldorligi bilan qiymati baland, albatta.

Bir jihatni alohida ta’kidlash joiz, avvallari davlat rahbarining hududlarga tashriflari doirasida faollar va aholi vakillari bilan uchrashuvlar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tahliliga bag‘ishlangan yig‘ilishlar asosan viloyat markazlarida o‘tkazilgan bo‘lsa, keyingi vaqtlarda bunday yig‘inlarni tumanlarda tashkil etish amaliyoti kengaymoqda. Bu esa hududlar taraqqiyotiga qo‘shimcha turtki berishi shubhasiz.

Xususan, Samarqand viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish masalalariga bag‘ishlangan yig‘ilishda viloyat iqtisodiyotini rivojlantirish uchun barcha manbalar hisobidan 11 trillion so‘m yo‘naltirilishi, tadbirkorlarga 18 trillion so‘m kredit resursi ajratilishi ta’kidlandi. Shu bilan birga, Samarqandni kambag‘allik va ishsizlikdan xoli hududga aylantirish, 100 ming nafar aholini doimiy ish bilan ta’minlash va 31 ming oilani kambag‘allikdan qichirish kabi aniq ijtimoiy vazifalar belgilab berildi.

Prezidentimiz juda muhim masalani ilgari surdiki, sun‘iy intellekt yordamida hududlarni diagnostika qilish va har bir mahallaning “o‘sinh nuqtalari”ni aniqlash zarurligi qayd etildi. Narpay va Termiz tumanlarida 1-maydan boshlab joriy etiladigan mazkur model “mahalla yettilligi” hamda bank resurslarini eng ko‘p ish o‘rni yaratadigan loyihalarga samarali yo‘naltirish imkonini beradi.

Viloyatning mamlakat iqtisodiyotidagi strategik o‘rnini yanada mustahkamlash maqsadida umumiy qiymati qariyb 7 milliard dollarlik 106 ta yangi investitsiya loyihasiga start berilgani ham katta ahamiyatga ega voqea bo‘ldi. Davlatimiz rahbari tomonidan ramziy tugma bosilib, Xitoy, Turkiya, BAA, Yevropa va Osiyoning qator yetakchi davlatlari bilan hamkorlikdagi 2,4 milliard dollarlik 53 ta loyiha ishga tushirildi, yana 4,6 milliard dollarlik 53 ta yirik loyihaning qurilishi boshlandi.

Tog‘-kon sanoati va geologiyadan tortib, elektrotexnika, kimyo, ta’lim va turizm kabi qator sohalarni qamrab olgan mazkur loyihalar

viloyat sanoatini diversifikatsiya qilish orqali 18 mingta yangi ish o‘rni yaratish, 13 trillion so‘mlik mahsulot ishlab chiqarish va eksport salohiyatini 700 million dollarga oshirish imkonini berishi qayd etildi. Bu nafaqat hudud, balki milliy iqtisodiyotimizning barqaror yuksalishi hamda xalqimiz farovonligiga xizmat qiladi.

Shubhasiz, Payariq tumanida buyuk muhaddis bobomiz Imom Buxoriy yodgorlik majmuasining yangilangan va muhtasham qiyofada ochilishi ulkan voqealik bo‘ldi. Bu majmua shunchaki ziyoratgoh yoki me’moriy obida emas, u o‘zbek xalqining jahon ilm-fani va Islom sivilizatsiyasiga qo‘shgan beqiyos hissasining moddiy ifodasidir. Rekonstruksiya qilingan ushbu maskan butun dunyo musulmonlari uchun tabarruk manzil sifatida yiliga millionlab xorijiy sayyohlarni yurtimizga jalb etadi. Yangilangan majmua nafaqat ichki, balki Indoneziya, Malayziya, Turkiya, Pokiston va arab davlatlaridan kelayotgan ziyoratchilar oqimini yanada oshirishga xizmat qiluvchi yirik ma’naviy va turistik markazga aylanmoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan Samarqandni ilmiy konferensiyalar, forumlar va xalqaro anjumanlar o‘tkaziladigan yirik markazga aylantirish vazifalari belgilangani zaminida ham yuksak ilmiy-ma’naviy poydevor yotibdi. Majmua ma’naviy tomirlarimizning qanchalik teran ekanini va bugungi Yangi O‘zbekiston buyuk renessanslarning mantiqiy davomchisi ekanini yana bir bor namoyon etadi.

Samarqandga tashrif davomida belgilangan vazifalar va ishga tushirilgan loyihalar ko‘lami nihoyatda keng. Biroq bu natijalarning bardavom bo‘lishi, ajratilayotgan trillionlab mablag‘larning o‘z manziliga yetib borishi va mahallalarda ko‘zlangan maqsadlarga xizmat qilishi kuchli jamoatchilik nazoratini talab etadi.

Shu ma’noda, biz, xalq vakillari bu boradagi ishlar samaradorligini ta’minlashni o‘z faoliyatimiz uchun bosh mezon deb bilishimiz lozim.

Azamot PARDAYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.



TEMIRCHI USTANING “JASORAT”I



(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Qirq yildirki, bir yostiqqa bosh qo‘nganmiz, - deydi Rahima opa. – 30 yil maktabda dars berdim. Ikki o‘g‘il va ikki qizni tarbiyalab voyaga yetkazdik, uyli-joyli qildik. Hayotning barcha joylchiliklarini birga yengib o‘tdik. Ba’zida, hatto, nogironligimiz ham esdan chiqib ketadi. To‘rt muchasi sog‘dek tinimsiz mehnat qilib keldik. Yaratganga shukur o‘ndan ziyod nabiralarimiz shukr.

S. Hayitov tomorqasida 550 tup tok, 500 tupdan ziyod mevali va manzarali daraxtlar bor. 5-6 ta chorva molidan tashqari qo‘y boqadi.

Sayitnazar aka qo‘shnisi va shogirdi Pardaboy Boltayev bilan ertalabdan kechgacha ustaxonadan chiqishmaydi. Chunki ularning qo‘l mehnati mahsulini bilganlar nafaqat Orlot mahallasi, balki tu-

manning boshqa qishloqlaridan, qo‘shni Payariq hamda Qo‘shrabot tumanlaridan ham izlab kelishadi. Navoiy viloyatidan ham kelib, trakorning nozik ehtiyot qismlari ni yasatib ketishadi.

Hozir ayni dehqonchilik pallasi emasm, kuniga 7-8 ta buyurtma keladi, - deydi Pardaboy aka. – Ustaning qo‘li qo‘lga tegmaydi. Peshma-pesh ketmon, bolta, panshaxa, belkurak kabi mehnat qurollarini yasab beraveramiz. Bir ishga unnamini bas, tugatmagunicha tinchimaydi. Biz shogirdlar ham yaqindan yordam berib turamiz. Rahima yangam tushlikni ustaxonaga olib kelgandagina ovqatlanishi mumkin.

Sayitnazar aka temirchilikdan tashqari ovchilikka qiziqadi, ovchilar jamiyatiga a’zo bo‘lgan. Ov mavsumida ruxsat berilgan hududlarga borib yovvoyi parranda va darrandalarni ovlab kelaman, - deydi Sayitnazar aka.

Ayniqsa, yonimga ke-rakli asboblari va nonushtani olib tog‘larga chiqib, yovvoyi kaptar, bedana, kaklik va bo‘rsiq, tulki kabi hayvonlarni ham ovlayman. Shuningdek, taqitlanmagan muddatlarda To‘sinov suv omboriga borib qarmoq bilan baliq, o‘rdak ushlab kelaman.

Ovchilik ham murakkab jarayon. Ba’zi ovchilar kuni bilan yurib biror narsa ushloqlasligi mumkin. Lekin Sayitnazar aka yovvoyi qushlarni chaqirish uchun maxsus yasama qushni ixtiro qilgan.

Menga davlat mukofoti berilganini eshitib, juda hayratlandim, - deydi Sayitnazar aka. – Men bir chekka qishloqda yashab, elimizga xizmat qilib, kelayotganimni bilib shunday mukofotga ravo ko‘rishganidan minnatdorman. Bundan keyin ham bor kuch-g‘ayratim bilan xalqqa xizmat qilaman.

Sayitnazar Hayitov bilan suhbatlashar ekanmiz, undagi shijoatni ko‘rib hayron qoldik. Tinib-tinchimas usta biz bilan gaplashib turib ham temirni qizdirish bilan mashg‘ul. Gap orasida o‘zi yasagan ixtirolar haqida ham so‘zlab berdi.

Yasagan har bir buyumning kimgadir, qanaqadir naf keltirishi shart, - deydi u shogirdlariga. – Bo‘lmasa, undan foyda yo‘q. Nimagadir qo‘l urdingmi, albatta mehr bilan ishlov berishing kerak. Ana shundagina usta degan noming chiqadi hamda elda hurmat qozonasan.

Dilmurod TO‘XTAYEV.
Baxtiyor MUSTANOV
(surat).



Bugungi kunda davlat boshqaruvi tizimi nafaqat O‘zbekistonning, balki butun mintaqaning eng ko‘p muhokama qilinadigan mavzularidan biriga aylandi. “Davlat ishiga kirish qiyin”, “Tanish-bilishsiz iloj yo‘q”, “Hujjatbozlikdan boshing chiqmaydi” degan gaplar hali-hamon odamlar orasida yuribdi. Ammo reallik qanday? Ushbu savollarga javob topish uchun boshqaruv samaradorligi agentligi Samarqand filiali boshlig‘i Azizbek IBRAGIMOV bilan suhbatlashdik.

- Aziz aka, suhbatimizni eng dolzarb yangilikdan boshlasak. Ko‘pchilik o‘rganib qolgan portal nomi o‘zgardi. Bu shunchaki texnik o‘zgarishmi yoki uning tagida kattaroq ma’no bormi?

Savolingiz o‘rinli. Avvalo, bir muhim jihatni ta’kidlashim kerak: Prezidentimizning PF-243-sonli farmoniga muvofiq, 2026-yilning 1-martidan e’tiboran davlat xizmatidagi bo‘sh ish o‘rinlari portali yangi manzilga — **vacancy.gov.uz** domeniga to‘liq o‘tkazildi.

Bu shunchaki saytning nomi o‘zgarishi emas. Bu — davlatning “gov.uz” segmentidagi rasmiy va keskin huquqiy oqibatlariga ega bo‘lgan platformasiga aylanganini bildiradi. Ko‘pchilik bizdan so‘raydi: “Shu saytning HeadHunter yoki OLX kabi xususiy rekruting saytlaridan nima farqi bor?”

Xususiy sektorda ish beruvchining kayfiyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. U sizning rezyumengizni ko‘rib, “Bu yigitning ko‘zi menga yoqmaydi” deb chetga surib qo‘yishi mumkin. Bizning tizimda esa **inson omili minimallashtirilgan**. Bu yerda har bir ariza, har bir test natijasi va har bir suhbat bali avtomatik tarzda qayd etiladi. Uni hech kim o‘chirib yubora olmaydi yoki tahrir qila olmaydi.

- Raqamlarga to‘xtalsak. Tizim qanchalik ommalashdi?

Keling, 2025-yilgi statistik faktlarni tahlil qilaylik. Birgina o‘tgan yilning o‘zida portal orqali 3964 ta ochiq tanlov e’lon qilindi. Ushbu tanlovlarda qatnashish istagini bildirganlar soni esa hayratlanarli — **118647 nafar nomzod**. Tasavvur qilyapsizmi, bu naqadar katta raqam? Shundan 48 ming 499 nafari Davlat test markazida test topshirdi. Yakunda 1737 nafar eng bilimli, eng salohiyatli yoshlar va mutaxassislar davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilindi.

Bugungi kunda tizim nafaqat hokimliklar yoki vazirliklarni, balki butun **sog‘liqni saqlash tizimini** ham qamrab oldi. Hozir birorta tibbiyot xodimi portalsiz, ochiq tanlovsiz ishga olinmaydi. Bu tizimning muqobili yo‘qligidan dalolat beradi.

- Ijtimoiy tarmoqlarda eng ko‘p beriladigan savol: “Oliyoghni bitirdim, lekin hamma joyda 2-3 yillik staj so‘rashyapti. Davlat ishiga qanday kiraman?” Bu muammo qachon yechiladi?

Boshqaruv samaradorligi agentligi muntazam ravishda fuqarolarning taklif va e’tirozlarini o‘rganib boradi. Biz hamma narsani ko‘rib-bilib turibmiz. Shu sababli hozir juda katta islohot ketmoqda. Barcha vazirlik va idoralarda hududiy hamda tuman darajasidagi boshlang‘ich lavozimlar uchun malaka talablari qayta ko‘rib chiqilmoqda. Endilikda **quyi bo‘g‘in lavozimlari (mutaxassis darajasi) uchun ish staji talab qilinmaydi**.

Masalan, siz mahallada yoshlar yetakchisi bo‘lmoqchimisiz? Yoki tuman hokimligi, soliq, adliya idoralariga oddiy mutaxassis bo‘lib kirmoqchimisiz? Sizdan hech kim “3 yillik staj qani?” deb so‘ramaydi. Sizdan faqat bilim va diplom talab qilinadi.

- Ish qidirib yurgan nomzod uchun yana qanday yengilliklar bor?

PF-243-sonli farmon bilan joriy yil 1-martdan boshlab yangi funksiya ishga tushdi. Endi fuqarolar portalda xuddi xususiy sektordagidek “ish qidiruvchi” maqomida ro‘yxatdan o‘tishlari mumkin. Siz o‘z rezyumengizni, kutayotgan ish haqingizni va mutaxassisligingizni tizimga kiritib qo‘yasiz. Ish beruvchining o‘zi sizga taklif bilan chiqishi mumkin bo‘ladigan muhit yaratilyapti.

Ayniqsa, ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam uchun katta imtiyoz bor. Yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan yoshlar oliyoghni tugatgach, 3 yil ichida birinchi marta ishga kirayotgan bo‘lsa, ular tanlovsiz (imtihonsiz) ishga qabul qilinishi qonunan kafolatlangan (PF-95). Bu davlatning yoshlarga ko‘rsatayotgan eng katta g‘amxo‘rligi.

- Ko‘pchilik aytadi: “Testdan o‘tish mumkin, lekin suhbatda baribir rahbar o‘zi istagan odamni olib qoladi”. Shu gapda jon bormi?

Keling, ochiq gaplashamiz. Bu fikrlar 5-6 yil oldingi eski qarashlar, ya’ni stereotiplar. Hozirgi tizimda rahbarning xohish-irodasi devor bilan to‘silgan. Nima uchun?

Birinchiidan, hujjatbozlik yo‘q. Ilgari “kadr”ga yalinib, 15 xil hujjat bilan qatnardingiz. Hozir hammasi portalda. Sizni kimdir “hujjating kam ekan” deb qaytarib yuborolmaydi.

Ikkinchiidan, videoyozuv. Har bir suhbat boshidan oxirigacha audio va videoga olinadi. Bu yozuvlar 6 oy davomida arxivda saqlanadi. Agar nomzod adolatsizlik sezsa, shu video asosida shikoyat qilishi mumkin.

Uchinchiidan, baholash tizimi. Komissiya a’zolari

bir-biridan mustaqil ravishda o‘z planshetlari orqali ball qo‘yishadi. Ular o‘zaro kelishib ololmaydi. Agar nomzod 56 baldan yuqori olib, reytingda birinchi bo‘lsa, rahbar uni ishga olishga majbur.

- Savollar-chi? Rahbar ataylab qiyin savol berib yiqitishi mumkinmi?

Yo‘q, buning ham yechimi topilgan. Portalda **“Suhbat savollari”** bo‘limi ochilgan. Idoralar o‘z sohasiga oid savollarni oldindan yuklab qo‘yadi. Eng muhimi — suhbat paytida savolni kompyuterning o‘zi **“random” (tasodifiy)** tanlab beradi. Komissiya a’zosi “kayfiyatiga qarab” savol berish huquqidan mahrum qilingan.

Hatto tayyorgarlik ko‘rish uchun **“demo-test”** imkoniyati bor. Siz uyda o‘tirib, xuddi imtihondagidek o‘zingizni sinab ko‘rishingiz va qaysi sohada bilimingiz kamligini aniqlashingiz mumkin.

- Davlat xizmatida ishlayotgan xodimlar uchun nima o‘zgardi? HRM tizimi nima beradi?

hrm.gov.uz (Inson resurslarini boshqarish) tizimi — bu davlat apparatining “miyasi” demakdir. Vazirlar Mahkamasining 492-sonli qarori bilan endilikda barcha ichki hujjatlar — ishga olish, ta’til, xizmat safari, mukofotlash — faqat elektron shaklda, ERI (elektron raqamli imzo) orqali amalga oshiriladi.

Bu nima degani? Bu “orqa sana” bilan buyruq chiqarish, qaysidir xodimning hujjatini ataylab “papka ostiga” yashirib qo‘yish davri tugaganini anglatadi. Tizim uchta yirik bazaga ulangan:

YMMT (mehnat staji uchun);

Uzasbo (oylik va mukofotlarni kechiktirmasdan to‘lash uchun);

edo.iyro.uz (ijro intizomi uchun).

Endi rahbar o‘z xodimining buyrug‘ini “ushlab turolmaydi”. Tizimda buyruq chiqidimi — demak, u avtomatik ravishda moliya va mehnat vazirligiga yetib boradi.

- Bu tizim xodimning karyerasiga qanday ta’sir qiladi?

Eng muhim nuqta shu yerda! Har bir xodimning “Raqamli qiyofasi” yaratildi. Ilgari sizning qanday ishlayotganingizni faqat rahbaringiz bilardi. Agar rahbar almasha, siz yana “nol”dan boshlashga majbur edingiz.

Hozir esa sizning erishgan yutuqlaringiz, o‘tgan malaka oshirish kurslaringiz, KPI ko‘rsatkichlaringiz tizimda saqlanib qoladi. Agar siz chekka bir tumanda juda yaxshi natija ko‘rsatsangiz, tizim sizni avtomatik ravishda **“Salohiyatli kadrlar zaxirasi”**ga qo‘shadi. Sizni respublika darajasida ko‘rishadi va yuqori lavozimga taklif qilishadi. Bunda mahalliy rahbar “yo‘l bermasligi”ning iloji yo‘q.

- Agentlik faqat nazorat qiladimi yoki xodimlarni himoya ham qiladimi?

Albatta, himoya qiladi. 2025-yil va 2026-yilning birinchi choragida qilingan ishlarga qarag: 37 ta monitoring va 3 ta kompleks o‘rganish o‘tkazildi;

32 ta taqdimnoma kiritilib, **38 nafar xodimning buzilgan huquqlari tiklandi**;

nogironligi bo‘lgan 37 nafar xodimning mehnat sharoitlari (qisqartirilgan ish vaqti va ta’til) bo‘yicha imtiyozlari tiklab berildi.

Eng muhimi, biz xodimlarning sog‘lig‘iga ham qarayapmiz. Viloyatda 1 512 nafar davlat xizmatchisi profilaktik tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi va kasallik aniqlangan 38 nafarini davolatilish choraklari ko‘rildi.

- Viloyatdagi bir qator tumanlarda boshqaruv tizimi o‘zgarayapti. Bu nima beradi?

Prezidentimizning PF-186-sonli farmoniga asosan, Samarqand viloyatidagi 4 ta tuman (Bulung‘ur, Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on va Payariq) tajriba-sinov hududi sifatida tanlangan. Bu yerda **“vazifa — funksiya — resurs — javobgarlik”** zanjiri joriy etilmoqda.

Endi rahbarlar bir joyda “ildiz otib” qolmaydi. Tuman bo‘linmalari rahbarlari, hokim o‘rinbosarlari har 5 yilda majburiy rotatsiya qilinadi. Mahallalardagi xotin-qizlar faollari va yoshlar yetakchilari ham endi hokimlik tuzilmasiga to‘liq o‘tkazildi. Bu vertikal boshqaruvni kuchaytiradi.

- Suhbatimiz so‘ngida nomzodlarga va yoshlarga nima degan bo‘lardingiz?

Bitta gap: davlat boshqaruvi tizimida qaytmis nuqtadan o‘tiladi. Endi tizim eskicha, yopiq va byurokratik idora emas. U katta, ochiq va natijaga asoslangan korporatsiyaga aylandi.

Davlat eshiklarni ochdi, imtihonlarni shaffof qildi, savollarni oldindan e’lon qildi. Endigi navbat nomzodlarning o‘zida. Faqat bilim va o‘z ustida ishlashgina sizga muvaffaqiyat keltiradi. “Tanish-bilish” qidirib vaqt sarflamang, yaxshisi portalga kirib, “demo-test” yeching va o‘z kelajagingizni o‘z qo‘lingiz bilan quring!

Y.MARQAYEV suhbatlashdi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 3-sentabrdagi “Er uchastkalarini onlayn-auksion orqali realizatsiya qilish va kadastr sohasida davlat xizmatlari ko'rsatish tartib-taomillarini takomillashtirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori qabul qilingan.

Ushbu qaror bilan elektron auksionlar orqali yer uchastkalarini sotish va kadastr sohasida davlat xizmatlari ko'rsatish tartib-taomillarini takomillashtirish yuzasidan qo'shimcha chora-tadbirlar belgilangan. Unga ko'ra kichik sanoat zonalari hamda yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi yer uchastkalarini elektron onlayn-auksion savdolariga chiqarishda ushbu sanoat va tadbirkorlik zonalari direksiyalari

Qanday obyektlar “1 so'm” XARID qiymatida auksionga chiqariladi

buyurmachi hisoblanadi.
- O'lis va cho'l hududlarda tashkil etiladigan yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalaridagi yer uchastkalari 2025-yil 5-sentabrdan “1 so'm” xarid

qiymatida auksionga chiqarilishi belgilangan. Shuningdek, Soliq qo'mitasining QQS to'lovchi yuridik shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan elektron axborot tizimi “E-auksion” elek-

tron onlayn-auksion savdo platformasiga integratsiya qilinadi. Ko'p kvartirali turarjoylar qurish uchun yer uchastkalari bo'yicha auksion g'oliblari ajratilgan yerda qurilish ishlarini boshlab uni foydalanishga topshirgunga qadar bo'lgan jarayonlarni “Onlayn mahalla” elektron platformasida monitoring qilib borish tizimi yaratiladi. Shu bilan birga, “E-auksion” elektron onlayn-auksion savdo platformasi va Kadastr agentligining “UZKAD” kadastr va ko'chmas mulkni ro'yxatdan o'tkazish integratsion axborot tizimi bilan integratsiya qilinadi va bu auksionda realizatsiya qilingan yer uchastkalari to'g'risidagi ma'lumotlarni elektron platformada real vaqt rejimida mahallalar kesimida kuzatish imkonini beradi.

Qahramon ESHONQULOV,
“Elektron onlayn-auksionlarni tashkil etish” AJ viloyat hududiy vakili.

6 MILLION

O'ZBEKISTONLIK XORIJDA

BU IMKONIYATMI YOKI MUAMMO?



Hozirgi globallashtirish sharoitida migratsiya jarayonlari jahon miqyosida muhim ijtimoiy-iqtisodiy hodisalardan biriga aylanib bormoqda. Xususan, mehnat migratsiyasi rivojlanayotgan davlatlar uchun ham muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Migratsiya — bu aholining turli iqtisodiy, ijtimoiy yoki siyosiy sabablarga ko'ra bir hududdan boshqasiga ko'chib o'tish jarayonidir. Bugungi kunda, ayniqsa, ish izlab xorijga chiqish holatlari keng tarqalgan bo'lib, bu jarayon mamlakat iqtisodiyotiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Mehnat migratsiyasining asosiy omillari qatoriga ichki mehnat bozorida ish o'rinlarining yetishmasligi, ish haqi darajasining pastligi hamda turmush sharoitlaridagi farqlarni kiritish mumkin. Iqtisodiy nazariyalarga ko'ra, rivojlanayotgan mamlakatlarda yashovchi aholi yuqori daromad va barqaror hayot izlab rivojlangan davlatlarga yo'l oladi. Shu jihatdan, O'zbekiston fuqarolari orasida ham xorijga chiqib mehnat faoliyatini amalga oshirish keng tarqalgan hodisaga aylangan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilda xorijda bo'lgan o'zbekistonliklar soni 6,2 million kishidan oshgan. Yil davomida ular tomonidan yuborilgan pul o'tkazmalari hajmi taxminan 18,9 milliard AQSh dollarini tashkil etib, bu ko'rsatkich avvalgi yilga nisbatan qariyb 28 foizga oshgan. Ushbu mablag'lar mamlakat iqtisodiyoti uchun muhim moliyaviy manba bo'lib xizmat qiladi. Xususan, pul o'tkazmalari aholi daromadlarini oshirish, iste'mol darajasini yaxshilash hamda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Mehnat migratsiyasi ijobiy natijalar bilan cheklanib qolmaydi. Migrantlar xorijda yangi kasbiy tajriba va zamonaviy ko'nikmalarni egallab, keyinchalik o'z yurtiga qaytgach, ushbu bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa inson kapitalining rivojlanishiga xizmat qiladi, biroq mazkur jarayonning salbiy jihatlar ham mavjud. Eng avvalo, ishchi kuchining katta qismi xorijga chiqib ketishi natijasida ichki mehnat bozorida malakali kadrlar tanqisligi yuzaga kelishi mumkin. Bundan tashqari, uzoq muddatli migratsiya oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatishi, ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi ehtimoldan xoli emas. Ayrim hollarda esa iqtisodiyot ichki resurslardan to'liq foydalanish imkoniyatidan mahrum bo'lib qoladi.

Mutaxassislar fikriga ko'ra, migratsiya jarayonlarini samarali boshqarish uchun kompleks yondashuv zarur. Jumladan, mamlakat ichida yangi ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash, yoshlarni zamonaviy kasblarga o'qitish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, xorijdagi mehnat migrantlarining huquqlarini himoya qilish, ularning ijtimoiy xavfsizligini ta'minlash va iqtisodiy salohiyatidan oqilona foydalanish dolzarb vazifalardan biridir.

Mehnat migratsiyasi murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, bir vaqtning o'zida ham imkoniyat, ham muammo sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur jarayonning ijobiy jihatlarini kuchaytirish va salbiy oqibatlarini kamaytirish esa davlat siyosati va ilmiy asoslangan yondashuvlarga bog'liqdir.

Valisher ABIROV,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti dotsenti v.b.
Hilolaxon ERKAYEVA,
talaba.

ZAHRI QOTIL SAVDOSIGA CHEK QO'YILDI

Yoshlar kelajagiga raxna solayotgan, oilalar tinchini buzayotgan giyohvandlik illatiga qarshi kurash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Ayniqsa, «asr vabosi»ning yoshlar orasida tarqalishining oldini olish maqsadida o'tkazilayotgan profilaktik tadbirlar o'z samarasini bermoqda.

Ayni kunlarda «Yoshlar orasida giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar tarqalishining oldini olish» keng qamrovli tezkor-profilaktik tadbirining navbatdagi bosqichi o'tkazilmoqda.

Tadbir davomida boshqarma boshlig'i nomiga shaxsini sir saqlashni so'ragan (shartli ravishda «XXX» deb nomlangan) fuqarodan ariza tushdi. Murojaatchi o'z arizasida Kattaqo'rg'on shahrida yashovchi Irgashev Anvar ismli shaxs giyohvandlik moddalari savdosi bilan shug'ullanib kelayotganini ma'lum qilib, uning noqonuniy faoliyatiga chek qo'yishda ko'mak berishini bildirdi.

Ariza asosida o'sha kuni soat 17:30 larda Kattaqo'rg'on shahrining eski shahar hududidagi aylanma yo'l yaqinida «tezkor-eksperiment» tadbiri o'tkazildi.

Tadbirda jalb etilgan «mijoz» Anvar Irgashev bilan uchrashib, undan 2 million so'm evaziga giyohvandlik moddasini sotib olayotgan vaqtda ashyoviy dalillar bilan qo'lga olindi.

Suriştiruvlar davomida ushbu shaxs avval ham Jinoyat kodeksining 273 va 276-moddalari (Giyohvandlik vositalarini o'tkazish va saqlash) bilan sudlangan bo'lib, o'tmishdagi xatolaridan tegishli xulosa chiqarmagani ma'lum bo'ldi.

Zuhriddin SARIYEV,
viloyat transportda xavfsizlikni ta'minlash boshqarmasi JQB tezkor vakili.

Qurilishda nazorat kuchaytirildi

Viloyatda qurilish obyektlarida xavfsizlikni ta'minlash, me'yoriy talablarning to'liq bajarilishini nazorat qilish hamda ishchi-xodimlar o'rtasida profilaktik tushuntirish ishlarini kuchaytirish maqsadida favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari tomonidan tadbirlar tashkil etildi.

Mutaxassislarimiz tomonidan Samarqand shahri va tumani, Jomboy tumanidagi obyektlarida olib borilayotgan qurilish ishlari tasdiqlangan loyiha hujjatlariga mos ravishda amalga oshirilayotgani o'rganildi. Ayrim obyektlarda loyiha talablariga rioya etilishi, qurilish materiallaridan to'g'ri foydalanish va texnik xavfsizlik choralarining bajarilishi yuzasidan muhim tavsiyalar berildi.

Samarqand shahridagi yangi qurilayotgan uy-joylarda yong'in xavfsizligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi. Mutaxassislarimiz tomonidan yong'in kelib chiqishining asosiy sabablari, ularning oldini olish choralari hamda favqulodda holatlarida to'g'ri harakat qilish tartibi haqida batafsil tushuntirish berildi. Shuningdek, qurilish obyektlarida elektr jihozlaridan foydalanishda ehtiyot choralarini ko'rish, yonuvchan materiallarni belgilangan tartibda saqlash va yong'iniga qarshi dastlabki

vositalarning doimo soz holatda bo'lishi zarurligi ta'kidlandi.

Jomboy va Samarqand tumanlarida barpo etilayotgan ko'p qavatli uylar va ijtimoiy soha obyektlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish, ishchi-xodimlarning hayoti va sog'lig'ini muhofaza qilishga qaratilgan profilaktik suhbatlar tashkil etildi.

Shuningdek, quruvchilar bilan mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi hamda favqulodda vaziyatlarda tezkor va to'g'ri harakat qilish ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bu kabi nazorat va targ'ibot tadbirlari qurilish obyektlarida xavfsizlik darajasini oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda inson hayoti va mulkini ishonchli himoyalashga xizmat qiladi.

Ahmadjon SAIDMURODOV,
viloyat FVB bo'lim boshlig'i.

Ta'lim uchun to'lov –

► Bilarmidingiz?

imtiyoz qanday ishlaydi?

Fuqarolarning ta'lim olish uchun ajratilgan daromadlari soliqqa tortilmaydi. Bu amalda ishlashi quyidagi tartibda bo'ladi:

- daromad topasiz va 12 foiz miqdorida daromad solig'i to'laysiz;
- universitetga kontrakt to'lovini amalga oshirasiz;
- kontrakt to'lovi summasi soliqqa tortiladigan daromaddan chiqarib tashlanadi;
- soliq qayta hisoblanadi.

Qaytariladigan summa quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi: to'langan kontrakt summasi 4 12%. Agar kontrakt 25 million so'm bo'lsa, 3 million so'mgacha qaytarib olish mumkin – agar daromadingizdan shu miqdorda jismoniy shaxslar daromad solig'i (JShDS) ushlab qolingan bo'lsa.

KIMLAR QAYTARIB OLISHI MUMKIN?
Imtiyoz quyidagi ta'lim to'lovlari uchun qo'llanadi:

- o'zining o'qishi uchun;
- farzandining o'qishi uchun;
- turmush o'rtog'ining o'qishi uchun.

Quyidagi hollarda imtiyoz qo'llanilmaydi:

- aka-uka, opa-singil, jiyan va boshqa qarindoshlarning o'qishi uchun to'lov qilinganida;
- soliqqa tortilmaydigan daromadlardan to'langanida;

- hujjat bilan tasdiqlanmagan hollarda.

QANDAY HUJJATLAR KERAK?
Imtiyozdan foydalanish uchun quyidagi hujjatlar talab qilinadi:

- universitet bilan shartnoma;
- to'lov hujjatlari: kvitansiyalar, bank o'tkazmalari, ma'lumotnomalar;
- daromad haqida ma'lumotnoma – agar soliq deklaratsiyasi rasmiylashtirilsa.

Quyidagi hollarda ish beruvchi orqali rasmiylashtirish mumkin:

- rasman ishlasangiz;
- kontrakt joriy yilda to'lanayotgan bo'lsa;
- buxgalteriya imtiyozni har oy qabul qilishga tayyor bo'lsa.

Bunda ish beruvchiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- soliq imtiyozini qo'llash to'g'risida ariza;
- universitet bilan shartnoma;
- to'lovni tasdiqlovchi to'lov hujjatlari;
- zarur hollarda qarindoshlikni tasdiqlovchi hujjat (farzand yoki turmush o'rtog'i uchun to'lansa).

Davron RAVSHANOV,
viloyat soliq boshqarmasi axborot xizmati rahbari.



REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasida marhum Xamidova Saodat Xabibovnaga (2021-yil 11-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Jumayev Akmal Norjigitovichga (2025-yil 18-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.

Bulung'ur tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasida marhum Mamayev Janikulga (2015-yil 3-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Salimov Otabek Mamayusupovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Bulung'ur shahri Mustaqqilik maydoni.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasida marhum Gafurov Ashur Zakirovichga (2022-yil 30-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xodjayev Farrux Farxodovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Chuqur yo'l ko'chasi, 9-“B” uy.

Samarqand shahridagi “KHAMIDOV KAMAR ABDUSALIMOVICH” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 304579351) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

